

ONA TILI DARSLARIDA STEAM YONDASHUVINI QO‘LLASH IMKONIYATLARI

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti

universiteti 3-bosqich talabasi

Xoliqova Hilola

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili ta’limida zamonaviy innovatsion yondashuv – STEAM modeli haqida ma’lumot beriladi. Maqolada ona tili darslarida fanlararo integratsiyani ta’minlash orqali o‘quvchilarning tafakkurini, ijodkorligini, tahliliy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish imkoniyatlari yoritiladi. Misollar orqali amaliy tatbiq ko‘rinishlari keltiriladi.

Kalit so‘zlar: ona tili, STEAM, integratsiya, kreativ fikrlash, interfaol metod, dars samaradorligi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются возможности применения инновационного подхода STEAM в обучении родному языку. Раскрываются пути развития аналитического мышления и творческих способностей учащихся через междисциплинарную интеграцию на уроках родного языка.

Ключевые слова: родной язык, STEAM, интеграция, креативное мышление, интерактивный метод, эффективность урока.

Abstract: This article discusses the possibilities of applying the modern innovative STEAM approach in native language education. It highlights opportunities to develop students' critical thinking and creativity through interdisciplinary integration in language lessons.

Keywords: native language, STEAM, integration, creative thinking, interactive method, lesson effectiveness.

Bugungi globallashuv va raqamli rivojlanish davrida ta'lim tizimi tubdan yangilanmoqda. O'quvchilar faqat bilim egallovchi emas, balki o'rganilgan bilimni hayotda qo'llay oluvchi, izlanishga moyil, mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllanishi talab etilmoqda. Shu sababli an'anaviy ta'limdan kompetensiyaga asoslangan, integratsiyalashgan, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim shakliga o'tish zarurati tug'ilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham bu borada muhim islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, Prezident farmon va qarorlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kreativ va tanqidiy fikrlashga asoslangan yondashuvlarni ta'lim jarayoniga joriy etish vazifasi belgilab berilgan. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda ona tili fanining ahamiyati katta. Chunki bu fandan olgan bilimlar o'quvchilarning barcha sohalarida fikr yuritishi, muloqotda bo'lishi va yozma hamda og'zaki nutq ko'nikmasi shakllanishining asosidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, STEAM yondashuvi (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) ona tili darslariga yangi nafas olib kiradi. Bu model orqali o'quvchi nafaqat matnni o'qiydi yoki yodlaydi, balki uni tushunadi, tasavvur qiladi, u bilan ishlaydi, loyihalashtiradi va boshqa fanlar bilan bog'lab tahlil qiladi. STEAM yondashuvi o'quvchini ijodiy, analitik, kompleks yondashuvga undaydi. Ayniqsa, bugungi kunda ta'limda muhim bo'lgan "4C" kommunikatsiya, kooperatsiya, kreativlik va tanqidiy fikrlash kabi ko'nikmalarni rivojlantirishda katta imkon yaratadi. Ushbu maqolada aynan ona tili fanida STEAM yondashuvini qanday joriy etish mumkinligi, u orqali o'quvchilarda qanday ko'nikmalar shakllanishi va bu yondashuvning afzalliklari haqida so'z yuritiladi. Misollar va tahlillar orqali mavzu yoritiladi.

STEAM yondashuvi va uning mohiyati haqida gapiradigan bo'lsak, STEAM ingliz tilidagi qisqartma bo'lib, quyidagi fanlarni anglatadi:

- S–Science(fan)
- T–Technology(texnologiya)
- E–Engineering(muhandislik)
- A–Art(san'at)

-M–Mathematics(matematika)

Bu model an'anaviy ta'lim uslublaridan farqli ravishda o'quvchini darsning faol ishtirokchisiga aylantiradi. Ta'lim jarayoni o'zaro bog'liq fanlar asosida, muammoni hal qilishga yo'naltirilgan topshiriqlar bilan boyitiladi.

Ona tili darslarida STEAM yondashuvini qo'llash imkoniyatlari

STEAM yondashuvi yordamida ona tili darslarini quyidagi shakllarda boyitishmumkin

1.Fanlararo bog'liqlikni aniqlash

2. Texnologiyadan

3.Muhandislik

4.Ijodkorlikni

5. Tadqiqot topshiriqlari

foydalanish

elementlari

rivojlantirish

Masalan 1-misol: "Bahor" mavzusi o'tilayotganda, o'quvchilar she'rni o'qib, tabiatdagi o'zgarishlarni rasmga chizadilar (Art), so'ngra grafik ob-havo jadvali tuzadilar (Matematika), bahorgi o'zgarishlar haqida qisqa og'zaki bayon qilishadi (Ona tili).

2-misol: 5-sinfda ertak matni o'qilib, personajlar xatti-harakatlarini muhandislik uslubida sahna maketi tarzida ifodalanadi.

Muhokama.Ona tili darslarida STEAM yondashuvini joriy etishda qator muammolar mavjud. Avvalo, ko'plab o'qituvchilarda bu yondashuv haqida to'liq tushuncha yo'q yoki amaliy tajriba yetarli emas. Shuningdek, metodik qo'llanmalarining yetishmasligi, darsliklarda STEAM asosidagi topshiriqlarning kamligi muammoning bir qismini tashkil qiladi. Aksariyat maktablarda texnik vositalar yetarli emas, sinfxonalarda zamonaviy sharoit yo'qligi ham bu yondashuvni samarali qo'llashga to'sqinlik qiladi. Yana bir muammo — fanlararo hamkorlikda dars rejalari ishlab chiqilmasligi va o'qituvchilarning an'anaviy yondashuvdan voz kechishni

istamasligidir. O'quvchilarni mustaqil, kreativ fikrlovchi shaxsga aylantirish uchun ta'lim jarayoni har tomonlama yangilanishi zarur.

Natijalar. Yuqoridagi muammolarni hal qilish uchun quyidagi yechimlar taklif etiladi.

- O'qituvchilar uchun STEAM yondashuvi bo'yicha maxsus treninglar tashkil etish
- Ona tili faniga moslashtirilgan metodik qo'llanma va dars ishlanmalari yaratish
- Maktablarning moddiy-texnik bazasini kuchaytirish, ayniqsa texnologik vositalar bilan ta'minlash
- O'quvchilarga loyiha asosida o'rganish topshiriqlari berish va baholash mezonlarini yangilash
- STEAM yondashuviga oid milliy tajribalarni jamlab, amaliyotga joriy qilish.

Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarida STEAM yondashuvini qo'llash dars samaradorligini oshiradi, fanlararo bog'liqlikni kuchaytiradi hamda o'quvchilarning o'z fikrini erkin ifodalashiga keng imkoniyat yaratadi. Har bir darsda bu yondashuvni oddiy usullar bilan joriy qilish o'qituvchidan yangicha fikrlashni, kreativlikni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavlonova K., Hakimova N. Ona tili darslarida o'qish savodxonligini egallash imkoniyatlari. — Toshkent, 2020.
2. Yuldasheva Z. Integrativ yondashuv asosida til o'rgatishning samarali yo'llari. – T., 2021.
3. Qosimov A. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: "O'qituvchi", 2020.
4. STEAM Education Guide. www.edutopia.org (murojaat qilingan sana: 2025-04-29)
5. Davlat ta'lim standarti. Boshlang'ich ta'lim (O'zbekiston Respublikasi, 2022)